

KORXONALARDA MOLIYAVIY BARQARORLIK KO'RSATKICHLARIGA DOIR MASALALARI

Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich

(Namangan muhandislik qurilish instituti, o'qituvchi)

Anotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlariga doir ayrim masalalar chuqur o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisobot, aktivlar, balans likvidligi, moliyaviy mustahkamlik darajasi, debitor va kreditor, moliyaviy ko'rsatkichlar.

Аннотация: В данной статье глубоко изучены некоторые вопросы, связанные с показателями финансовой устойчивости предприятий.

Ключевые слова: Финансовый отчет, активы, ликвидность баланса, уровень финансовой устойчивости, дебитор и кредитор, финансовые показатели.

Abstract: In this article, some issues related to indicators of financial stability in enterprises are deeply studied.

Key words: Financial statement, assets, balance sheet liquidity, level of financial stability, debtor and creditor, financial indicators.

Bozor iqtisodiyoti sharoiti ma'muriy - buyruqbozlikni inkor qilib, korxonalar faoliyatini erkin va mustaqil boshqarishni taqazo etadi. Bunday sharoitda boshqarish buyruqbilan emas, balki iqtisodiy dastaklar bilan amalga oshirilishi lozim.

Korxonani boshqarishda axborotlar muhim ahamiyatga ega. Ularning asosiy qismi moliyaviy hisobotlarda aks etdiriladi. Moliyaviy hisobotlar korxonalar faoliyati natijasini ifodalovchi ko'zgu hisoblanadi. Hozirgi sharoitda har bir mutaxassis rahbar moliyaviy hisobotlarni iqqisodiy o'qishni, ulardan tegishli xulosa chiqarib, boshqarishda foydalanishni yaxshi bilishi lozim.

Utgan davrlarda korxonalar faoliyatiga reja bajarilishiga qarab baho berilar, moliyaviy hisobotning asosi bo'lgan buxgalteriya balansidagi ma'lumotlar boshqarishda deyarli ishtirok etmas, natijada korxonalar faoliyatiga to'g'ri baho berilmas edi. Endilikda esa boshqarish korxonaning moliyaviy hisobotiga asosan amalga oshirilmoqda.

Moliyaviy hisobotlar juda katta axborotlar manbai bo'lib, tahlil jarayonida tayaniladigan eng to'g'ri asosiy xujjat hisoblanadi. Endilikda korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshi bilmasdan faoliyat ko'rsatish uni boshqarishda istiqbolga noto'g'ri yo'naltirish yoki qorong'i yo'ldan yurishga majbur qilish, demakdir. Korxonaning moliyaviy xolatini ifodalovchi ko'rsatkichlardan eng muhimi moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlardir. Darhaqiqat, aktivlar (asosiy fondlar, nomoddiy aktivlar, aylanma mablag'lar)ga qo'yilgan mablag'larni o'z mablag'lari hisobiga qoplaydigan,

noo'rin debitorlik va kreditor-lik qarzlariga yo'l qo'ymaydigan, majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni vaqtida to'laydig'an korxonona moliyaviy barqaror korxonona hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik o'z va qarz mablag'lari nisbati bilan aniqlanib, qator ko'rsatkichlar yordamida hisoblanadi[1].

Korxonaning moliyaviy barqarorligini (mustaqilligini) baholash va aniqlash uslubiyoti

Ko'rsatkich	Ko'rsatkichning qisqacha tavsifi	Shakl raqami va moliyaviy hisobot satri
Mustaqillik koeffitsiyenti	O'z mablag'larining xo'jalik umumiy mablag'lari summasidagi ulushi	1-sh., 390-satr/ 1-sh., 550-satr
Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti	O'z jalb qilingan mablag'lari nisbati yoki jalb qilingan mablag'larning 1 so'miga qancha o'z mablag'lari to'g'ri keladi	1-sh., 390-satr/ 1-sh., 540-satr
Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti	O'z mablag'lari 1 so'miga qancha xo'jalik mablag'lari to'g'ri keladi	1-sh., 550-satr/ 1-sh., 390-satr
O'z sarmoyasining harakatchanligi	Ishlab turgan va o'z sarmoyasiga nisbatan yoki o'z aylanma mablag'larining (ayiruv muddati o'tgan debitorlik qarzlari) o'z sarmoyasidagi ulushi qanday	(1sh., (390+400+410-110)-2a sh., 7-katak (yakun))/ 1-sh., 390-satr
Jalb qilingan sarmoyaning to'planishi koeffitsiyenti	Jalb qilingan sarmoyaning butun xo'jalik mablag'lari summasidagi ulushi	1-sh., 540=satr/ 1-sh., 550-satr
Jalb qilingan va o'z sarmoyasi koeffitsiyenti	O'z mablag'lari 1 so'miga qancha qarz mablag'i to'g'ri keladi	1-sh., 540=satr/ 1-sh., 390-satr

Korxonalar moliyaviy holatini umumiy baholashdan keyingi moliyaviy tahlil bosqichi bo'lib, korxonalarining moliyaviy mus-tahkamligi (barqarorligi) tahlili

hisoblanadi. Moliyaviy mustahkamlikni tahlil etishdan oldin moliyaviy mustahkamlikning mazmuni to'g'risida kelishib olishimiz lozim.

Iqtisodiy adabiyotlarning ko'pchiligida moliyaviy mustahkamlikka (barqarorlikka) va balans likvidligiga bir xil ta'rif berishadi va aniqlanayotgan ko'rsatkichni yoki moliyaviy mustahkamlik yoki balans likvidligi, ya'ni korxonalarining olingan qarzlarni qaytarib berish qobiliyatiga egalik deb tushuniladi. Moliyaviy mustahkamlik va balans likvidligi —bu o'z mazmuniga ega bo'lgan ikki xil moliyaviy ko'rsatkichlar bo'lib, korxonalar moliyaviy faoliyatini har xil nuqtai nazardan ifodalaydi. Bu haqda respublikamizning eng yirik iqtisodchi olimlaridan biri hurmatli ustozimiz E.Akromovning «Korxonalarining moliyaviy holatining tahlili» deb nomlangan o'quv qo'llanmasida shunday deyiladi[2]:

Moliyaviy mustahkamlik ko'rsatkichi kompleks sifatidagi ko'rsatkich bo'lib, u:

- korxonalarining murakkab bozor munosabatlari davrida ishlab chiqarishni saqlanib qolish imkoniyatini;
- korxonalar mablag'laridan erkin ravishda foydalanish imkoniyati borligini;
- ishlab chiqarishni to'xtatmasdan, mahsulot sotish imkoniyati borligini;
- korxonalar faoliyatining umumiy mustahkamligini;
- korxonalar faoliyatiga to'g'ri boshqaruvlik qilinayotganligini;
- korxonalarda mavjud moliyaviy resurslarni bozor munosa-batlarining talablariga javob berishligini;
- korxonalarining zaxira va xarajatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qoplovchi manbalar borligi darajasini ko'rsatadi.

Demak, moliyaviy mustahkamlik korxonalar moliyaviy resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish bilan aniqlanadi. Korxonaning moliyaviy barqarorligiga korxonalarining butun xo'jalik, ishlab chiqarish faoliyatining hamma yo'nalishlari ta'sir ko'rsatadi. Unga ham ichki, ham tashqi omillar, shart-sharoitlar ta'sir etadi.

Ichki omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin[3]: •korxonada ishlab chiqarishning barqarorligi;

- ishlab chiqarishni tashkil qilish;
- ishlab chiqarishni boshqarish;
- korxonalar ustav jamg'armasining hajmi;
- korxonalar xarajatlari va daromadlarining nisbati;
- o'zlik mablag'larining manbalari va korxonalar majburiyatlarining nisbati;
- korxonalar aylanma mablag'lari tarkibi.

Korxonalar o'z faoliyati davomida boshqa xo'jalik sub'yektlari bilan iqtisodiy aloqalarda bo'lar ekan, korxonalar moliyaviy barqarorligiga tashqi omillar ham ta'sir etadi. Bunday omillar tarkibiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- korxonaning tovarlar bozoridagi holati;

-korxonaning eksport va import aloqalari;
-korxonaning boshqa korxonalar bilan ishga doir aloqalarda aktivligi;
-bank organlari, debitor va kreditor korxonalar bilan aloqalar;
-respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat, soliq, narx-navo va moliya, bank siyosati, texnika, texnologiya siyosati.

Shunday qilib moliyaviy mustahkamlikka korxonada ichidagi va undan tashqaridagi vaziyat, omillar, shart-sharoitlar ta'sir ko'rsatar ekan, bundan ko'rinadiki, moliyaviy mustahkamlikning darajasi korxonalarining hozirgi va kelgusidagi faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy mustahkamlik bir qancha omillar, shart-sharoitlar ta'sirining yakuni bo'lib, u o'z navbatida korxonada faoliyatining ko'p tomonlariga ta'sirini ko'rsatar ekan. Moliyaviy mustahkamlik tahlilini boshlamasdan oldin yana bir muammoni hal qilib olsak. Bu moliyaviy mustahkamlik atamasining mazmuni haqidagi muammodir. Ushbu muammoli savolni yechish maqsadida quyida iqtisodchi olimlarning fikrlari bilan tanishib chiqsak.

Moliyaviy mustahkamlikning mazmuni shundan iboratki, moliyaviy mustahkamlikni o'lchash, baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimini chegaralab olish lozim.

Bunga ko'ra, V.G.Artemenko, M.V.Bellendirlarning fikricha, moliyaviy mustahkamlik korxonada moliyaviy resurslarini shakllanish, taqsimlanish va foydalanish samaradorligini ifodalaydi.

Lekin, ma'lumki, korxonalar moliyaviy resurslarining shakllanish, taqsimlanish va foydalanish samaradorligi ularning umuman moliyaviy holati bo'lsa, moliyaviy mustahkamligi korxonalar faoliyatini faqat bir shaklga, yo'nalishini ifodalaydi.

A.D.Sheremet, R.S.Sayfulinlarning fikricha moliyaviy mustahkamlik va to'lashga qodirlik bir mazmunga ega bo'lib, to'lashga qodirlik moliyaviy mustahkamlikning tashqari ko'rinishini ifodalaydi deb ta'kidlanadi.

Xuddi shu fikrga A.N.Li. va S.I.Shevchenkolar ham ega. Ular o'z maqolalarida moliyaviy mustahkamlik koeffitsiyentining tahlili to'g'risida to'xtalib, to'lashga qodirlik ko'rsatkichini tahlil etganlar.

Haqiqatda moliyaviy mustahkamlik va to'lashga qodirlik har xil mazmunga ega bo'lib, bu moliyaviy ko'rsatkichlar turli usulda aniqlanadi. Undan tashqari A.N.Li va S.I.Shevchenkolar moliyaviy mustahkamlikni moliyaviy barqarorlik deb qabul qilishgan. Bu ham bizning fikrimizcha noto'g'ri. Moliyaviy barqarorlik bu korxonalarining moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishini, pasaymasligini ifodalaydi. Moliyaviy mustahkamlik to'g'risida gap borar ekan, yana ikkita narsaga e'tibor berish lozim. Bu moliyaviy mustahkamlikning kriteriyasi va moliyaviy mustahkamlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. A.N.Li va S.I.Shevchenkolarining fikricha, moliyaviy mustahkamlikning kriteriyasi aniqlanishi lozim va bu kriteriya sifatida korxonalarining bankrot bo'lishi ehtimolligining past darajasi tavsiya etiladi.

Bizningcha esa, avvalambor, moliyaviy mustahkamlikning darajasiga binoan korxonalarining bankrot bo'lish ehtimolligi aniklanilmaydi.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy ko'rsatkichlarni, shu jumladan, moliyaviy mustahkamlik bo'yicha ham kriteriyalar emas, optimal yoki me'yoriy darajalari tasdiqlanishi kerak.

Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy mustahkamlik darajasini o'lchash uchun har xil ko'rsatkich tizimlari tavsiya etiladi. A.N.Li va S.I.Shevchenkolar moliyaviy mustahkamlikni anikdash uchun korxonalar kapitalining tarkibiy ko'rsatkichlari, V.G.Artemenko va M.V.Bellendirlar esa moliyaviy mustahkamlikni tahlil etishda nisbiy ko'rsatkichlar bilan birga absolyut ko'rsatkichlardan ham foydalanishgan.

Moliyaviy mustahkamlik albatta, nisbiy ko'rsatkichlar, zaxiralar va xarajatlar hamda ularni qoplovchi manbalar nisbati bilan aniqlanishi lozim. Zaxira va xarajatlar bilan ularni qoplovchi manbalar o'rtasidagi absolyut farq esa — moliyaviy mustahkamlikni ko'rsatmaydi. Ulardan faqat moliyaviy mustahkamlikni aniklash uchun axborot bazasi sifatida foydalaniladi. Shunday qilib, iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy mustahkamlikni tahlil qilishda eng asosiy muammo, uning iqtisodiy mazmuni bo'yicha iqtisodchi olimlar o'rtasida kelishuvchanlik hali mavjud emas ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E. Ergashev. Iqtisodiy va moliyaviy tahlil T.: 2005, 164-bet
2. A.V.Vahobov, A.T.Ibrohimov, N.F.Ishonqulov Moliyaviy va boshqaruv tahlili T.: "Sharq", 2005 217-bet
3. I.Sirojiddinov., A Isomuxamedov., Kichik biznes subyektlarida soddalashtirilgan buxgalteriya hisobi. Darslik. Namangan 2022-yil.
4. Akbarjon, I. (2024). XARAJATLARNI BUDJETLASHTIRISH BIZNES REJANING MUHIM ASOSI SIFATIDA. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 22-28.
5. Voxodir o'g'li, I. A. (2023). ACCOUNTING AND ANALYSIS OF COSTS AS A BASIS OF BUDGETING. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071, 12(04), 9-12.
6. ўғли Исомухамедов, А. Б., & Икромиддин Кутбиддинович, С. (2023). БЮДЖЕТЛАШТИРИШДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 406-412.
7. Voxodir o'g'li, I. A. (2022). FEATURES OF ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 5, 64-70.
8. Kadirov, S., Isomukhamedov, A., Ergashev, O., & Bakhriev, A. (2021). *The Method of Increasing the Power Indicators of Engines of Gas-Cylinder Vehicles in Mountainous and Foothill Conditions* (No. 5398). EasyChair.
9. Сирожиддинов, И. К., & Исомухамедов, А. Б. (2022). Развитие экспортной

направленности сельскохозяйственного производства.

10. Isomuhamedov, A. (2023). ORGANIZATION OF ACCOUNTING IN STRUCTURES OF A SMALL BUSINESS IN THE CONSTRUCTION FIELD. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 *Impact Factor: 6.876*, 17(12), 27-32.
11. Isomukhamedov, A., & Sirojiddinov, I. (2022, January). DETERMINING AND ACCOUNTING FOR THE COST OF PRODUCTION IN SMALL BUSINESSES IN THE MANUFACTURING SECTOR. In *Conference Zone* (pp. 241-243).
12. Lubis, S. N., Menglikulov, B., Shichiyakh, R., Farrux, Q., Ugli, B. O., Karimbaevna, T. M., ... & Jasur, S. (2024). Temporal and spatial dynamics of bovine spongiform encephalopathy prevalence in Akmola Province, Kazakhstan: Implications for disease management and control. *Caspian Journal of Environmental Sciences*, 22(2), 431-442.
13. Abdulazizovich, X. U. B. (2024). MOLIVAVIY AKTIVLAR TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(2), 82-86.
14. Abdulazizovich, K. U. (2022). Improving Methodological Approaches to Financial Asset Accounting. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 *Impact Factor: 6.876*, 16(4), 56-62.
15. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). XALQARO QOIDALAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.
16. Abdulazizovich, K. U. IMPROVING THE REFLECTION OF MONEY AND CASH EQUIVALENT IN THE ACCOUNTING BALANCE. *Dear Academicians & Research Scholars*, 55.
17. Abdulazizovich, K. U. B. (2023). Improvement Of Information About Accounts Receivable In Current Assets In The Balance Sheet Based On International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 2849-2859.
18. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirezayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. *Tashkent" economics-finance"—2013*.
19. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 *Impact Factor: 8.071*, 12(11), 38-47.
20. Холмирзаев, У. А. (2023). ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ: ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.

21. Xolmirzaev, U. A. (2020). Financial assets and improvements of their analysis. *Экономика и социум*, (1 (68)), 102-105.
22. Abdulazizovich, X. U. B. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. *Ilmiy monografiya. Toshkent–2023*.
23. Xolmirzayev, U. B., & Ergashev, I. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH TIZIMI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(5), 109-115.
24. Хакимов, Б., Талабоев, Х., & Холмирзаев, У. (2021). ВОПРОСЫ УЛУЧШЕНИЯ АНАЛИЗА ОБРАЩЕНИЯ ДОЛГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ НАПРАВЛЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (85)), 441-446.
25. Xolmirzayev, U. B., & Hakimova, G. Z. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY MECHANIZMI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 96-98.
26. Abdulazizovich, X. U. B., & Abdullajanovich, U. T. (2024). SANOAT ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT YO 'NALISHLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 17-21.
27. Khakimov, J. B., & Kholmirzayev, A. U. (2021). Positive Aspects Of Cash Method In Small Enterprises In The Context Of Pandemic. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).
28. Abdulazizovich, X. U. B., & Muhabbat, N. (2024). INCREASING COMPETITIVENESS IN THE COMMODITY MARKET IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 42(1), 197-206.
29. Холмирзаев, У. А., & Самижонова, Ш. С. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ДЕНЕГ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 755-766.
30. Холмирзаев, У. А., & Камолдинов, О. О. (2022). АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ О ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПО ОБОРОТНЫМ СРЕДСТВАМ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 767-779.
31. Убайдуллаев, Т., & Холмирзаев, У. (2019). ФАКТОРЫ И ТЕНДЕНЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА. *Мировая наука*, (1 (22)), 299-302.
32. Gulshirin, J., & Abdulazizovich, X. U. B. (2022, March). INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF EXPORT DIVERSIFICATION IN THE REGION. In *Conference Zone* (pp. 277-281).
33. Khakimov, B., & Kholmirzayev, U. (2020). Improving Cash Accounting And Analysis On The Basis Of International Experiences. *International Finance and Accounting*, 2020(1), 18.

34. Hakimov, B., Yunusov, M., & Holmirzayev, U. (2018). Elaboration of The Balance Sheet Liquidity Analysis-Requirements of The Period. *International Finance and Accounting*, 100.
35. Xolmirzaev, U. A., & Juraev, E. S. (2020). Problems of improvement of debtor debt analysis. *Мировая наука*, (1 (34)), 100-105.
36. Sirojiddinov, I., Xolmirzaev, U., & Axmadjonova, M. (2021). THE NEED AND FACTORS TO ACCELERATE THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *Интернаука*, (21-5), 14-16.
37. Камолов, А. А., & Холмирзаев, У. А. (2016). Малый бизнес и частное предпринимательство в Узбекистане. *Вопросы экономики и управления*, (5), 182-184.
38. Abdulazizovich, X. U. B., Qutbiddinovich, S. I., & Sobirjon o'g'li, J. E. (2021). Positive aspects of the cash method in small businesses in a pandemic environment. *American Journal of Economics and Business Management*, 4(3), 1-8.
39. Abdurahmon, K., & Abdulazizovich, K. U. (2021, December). Some Issues of Improving Securities Accounting. In *Conference Zone* (pp. 129-132).
40. Abdulazizov, K. U., Sherzod, I., & Abdulkhodinevna, S. M. (2022). IMPROVING THE METHODOLOGICAL BASIS OF ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11, 34-39.
41. Kamolov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2018). Economic Laws And Categories. *Экономика и социум*, (2 (45)), 34-36.
42. Abdulazizovich, K. U. B., & Tursunpolatovna, N. N. (2023). Improving Reflection Of Information About Cash And Equivalents In The Accounting Balance Sheet On The Basis Of International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 2107-2114.
43. Abdullaevich, A. O., & Abdulazizovich, K. U. B. (2023). The Importance of Infrastructure in Facilitating the Business Environment. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 3695-3702.
44. Kholmirzaev, U. B. A., & Ubaydullayev, T. A. (2023). Improving the classification of financial assets according to the economic content. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1), 203-209.
45. Qutbiddinovich, S. I., & Abdulazizovich, X. U. B. (2023). GAAP ASOSIGA QO'YILGAN MOLIYAVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI. *Interpretation and researches*, 1(3), 42-50.
46. Kamalov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2016). Small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. *Questions of Economics and Management*, 5(7), 6.

47. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIVIY HISOBOTLARNING QAYTA KO'RID CHIQILISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. *Educational research in universal sciences*, 2(3), 424-432.
48. Xolmirzayev, U. A., & Xakimova, G. A. (2023). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.
49. O'g'li, J. E. S., & Abdulazizovich, X. U. B. (2019). Profits of housekeeping and its development. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 8(4), 419-423.
50. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2020). Supporting small business subjects by tax reforms. *Экономика и социум*, (1 (68)), 48-52.
51. Xolmirzaev, U., Juraev, E., & Axmadjonova, M. (2021). The role of accounting in small business management. *Интернаука*, (21-5), 20-22.
52. Juraev, E., Xolmirzaev, U. A., & Rustamova, M. (2021). INCREASING THE EFFICIENCY OF REAL INVESTMENT IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC LIBERATION. *Интернаука*, (21-5), 9-11.
53. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2019). Profits of housekeeping and its development. *TRANS Asian Research Journals*, 8(4).
54. Xolmirzaev, U. A., Juraev, E., & Jamgirova, G. I. (2021). APPROACH TO ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS IN THE ENTERPRISE IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS. *Интернаука*, (21-5), 17-19.
55. Abdulazizovich, X. U. B., & Djabirxanovna, N. M. (2024). MOLIYAVIY AKTIVLAR HISOBINING TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Modern education and development*, 12(3), 288-297.
56. Abdulazizovich, X. U. B., & Raxmjionovna, M. N. (2024). QIMMATLI QOG'OZLARNI ANALITIK HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Modern education and development*, 12(4), 18-28.